

SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



Asosiy kapitalga investitsiyalar 2021- yil yanvar-mart

Jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi:
1 720,8 mlrd. so'm

O'sish sur'ati:
97,2 %

Asosiy kapitalga investitsiyalar

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan:
245,6 mlrd. so'm

Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan:
1 475,2 mlrd. so'm

Joriy davrda 1 720,8 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ularning 69,8 % jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxona, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 30,2 % moliyalashtirildi.

Markazlashgan manbalari hisobidan:

Respublika byudjeti:
40,3 mlrd. so'm

Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi:
21,9 mlrd. so'm

Suv ta`minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi:
14,8 mlrd. so'm

O'zR kafolati ostida xorijiy kreditlar:
168,6 mlrd. so'm

Markazlashmagan manbalari hisobidan:

Aholi mablag'lari :
301,2 mlrd. so'm

Korxona mablag'lari:
218,6 mlrd. so'm


Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari:
300,6 mlrd. so'm

To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar:
654,8 mlrd. so'm

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

Asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi, ya'ni jami investitsiyalarning 38,0 % to'g'ridan - to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan moliyalashtirilgan. Shuningdek, aholi mablag'lari hisobidan 17,5 %, tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag'lari 17,5 %, korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari 12,7 %, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar 9,8 %, Respublika byudjeti 2,3 %, tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi 1,3 % va suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi 0,9 % asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.

**Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga
investitsiyalar
(jami hajmdagi ulushi, % da)**





Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar


	Mird. so'm	o'sish sur'ati, % da	jamiga nisbatan, % da
Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan	1 720,8	97,2	100,0
Respublika byudjeti	40,3	59,9	2,3
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	21,9	-	1,3
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	14,8	198,0	0,9
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar	168,6	162,1	9,8
Korxona mablag'lari	218,6	83,2	12,7
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	300,6	117,5	17,5
To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	654,8	83,2	38,0
Aholi mablag'lari	301,2	105,6	17,5



Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar


	Mlrd. so'm	o'sish sur'ati, % da	jamiga nisbatan, % da
Surxondaryo	1 720,8	97,2	100,0
Oltinsoy	46,5	103,5	2,7
Angor	31,8	59,2	1,9
Bandixon	10,6	95,8	0,6
Boysun	351,2	152,6	20,4
Denov	115,2	54,4	6,7
Jarqo'rg'on	77,7	55,2	4,5
Qiziriq	48,8	47,4	2,9
Qumqo'rg'on	67,7	107,1	3,9
Muzrabot	46,6	60,8	2,7
Sariosiyo	301,8	188,8	17,6
Termiz	148,0	82,6	8,6
Uzun	21,1	30,9	1,2
Sherobod	93,3	74,5	5,4
Sho'rchi	39,8	59,8	2,3
Termiz sh.	320,7	136,4	18,6

Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'atlari



Asosiy kapitalga investitsiyalarning hududlar kesimida yuqori o'sish sur'ati Sariosiyo tumanida kuzatilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 188,8 %, Boysun tumanida 152,6 %, Qumqo'rg'on tumanida 107,1 %, Oltinsoy tumanida 103,5 % va Termiz shahrida 136,4 % ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar



Asosiy kapitalga investitsiyalarning oʼzlashtirilgan hajmi boʼyicha hududlar kesimida Boysun tumani yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 20,4 % oʼzlashtirildi.


Shuningdek Boysun tumanidan keyingi oʼrinda Sariosiyo tumani – 17,6 % ni tashkil etmoqda.

Termiz shahri va Termiz tumanlarida ushbu koʼrsatkich mos ravishda – 18,6 va 8,6 % ni tashkil etdi.

Denov hamda Sherobod tumanlarida investitsiyalarning viloyatdagi ulushi – 6,7 va 5,4 % ni tashkil etgan boʼlsa, Bandixon tumanida bu koʼrsatkich boʼyicha eng kami boʼldi – 0,6 %.




Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi



Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish montaj ishlari bo'yicha – 640,7 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar – 841,4 mlrd. so'm va boshqa xarajatlarga - 238,7 mlrd. so'm o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi (jamiga nisbatan, % da)




Joriy davrda ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning aksariyat qismi yangi qurilishga yo'naltirilgan. Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi – 1 036,2 mlrd. so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 60,2 % ini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar – 421,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va viloyatda jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 24,5 % ini tashkil etdi. Qolgan 15,3 %, yani - 263,6 mlrd. so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida tog'-kon sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan – 265,4 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 15,4 % o'zlashtirilgan.

Qayta ishslash sanoati tarkibida eng ko'p investitsiya o'zlashtirilgan 2 faoliyat turi quyidagilar:

- Oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish - 26,8 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 1,5 %);
- to'qimachilik mahsulotlari va kiyim kechak ishlab chiqarish – 92,5 mlrd. so'm (5,4 %);

Tashish va saqlashda - 144,1 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 8,4 % o'zlashtirildi.



Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar




mlrd. so'm

	Jami investitsiya va kreditlar	shu jumladan:		To'g'ridan – to'g'ri investitsiyalar	Boshqa investitsiya va kafolatmagan kreditlar	shu jumladan:	
		Investitsiyalar	kreditlar			Investitsiya- lar	Kafolatlan- magan kreditlar
Surxondaryo	823,4	376,7	446,7	376,0	278,8	0,7	278,1
Termiz sh. tumanlar:	114,6	38,9	75,7	38,9	59,3	-	59,3
Oltinsoy	29,6	-	29,6	-	29,6	-	29,6
Angor	-	-	-	-	-	-	-
Bandixon	1,1	1,1	-	1,1	-	-	-
Boysun	297,3	284,8	12,5	284,8	12,5	-	12,5
Denov	28,4	-	28,4	-	28,4	-	28,4
Jarqo'rg'on	15,2	-	15,2	-	15,2	-	15,2
Qiziriq	24,7	0,7	24,0	-	24,7	0,7	24,0
Qumqo'rg'on	22,6	-	22,6	-	15,2	-	15,2
Muzrabot	6,3	6,3	-	6,3	-	-	-
Sariosiyo	144,0	32,0	112,0	32,0	-	-	-
Termiz	72,9	3,1	69,8	3,1	69,8	-	69,8
Uzun	5,3	5,3	-	5,3	-	-	-
Sherobod	46,7	0,3	46,4	0,3	13,6	-	13,6
Sho'rchi	14,7	4,2	10,5	4,2	10,5	-	10,5

Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

Jamiga nisbatan, % da:




Joriy davrda ham asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalar va kreditlarning katta qismi togʼ-kon sanoati oʼzlashtirilib, u 253,6 mlrd. soʼmni yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmida 30,8 % ni tashkil etdi.

Hajm jihatidan keyingi oʼrinni qayta ishslash sanoati egallagan. Ushbu faoliyat turi boʻyicha – 206,0 mlrd. soʼm yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 25,0 % oʼzlashtirildi.

Qishloq xoʼjaligi faoliyati boʻyicha - 105,0 mlrd. soʼm, tashish va saqlash faoliyati boʻyicha - 74,2 mlrd. soʼm xorijiy investitsiya va kreditlar oʼzlashtirilgan.

Ishga tushirilgan turar joylar



Ijtimoiy sohada joriy davrda jami umumi maydoni 272,8 ming kv.m, bo'lgan 1720 ta turar joy obyekti yangi qurilib, ulardan umumi maydoni 212,7 ming kv.m bo'lgan 1383 tasi qishloq joylashgan.

Turar joylarning hududlar kesimida ko'radigan bo'lsak, eng ko'pi Sariosyo tumanida ishga tushirilgan 40,6 ming kv.m va u viloyat bo'yicha ishga tushirilgan jami umumi maydonning 14,9 % ini tashkil etdi. Keyingi o'rnlarda Muzrabot va Termiz tumanlari egallagan bo'lib, viloyat bo'yicha ishga tushirilgan jami umumi maydonning 11,6 va 11,5 % ini tashkil etishgan.

Eng kam turar joy Uzun tumanida ishga tushirilgan bo'lib, uning ulushi 1,5 % ni tashkil etdi.



**Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni:

(76) 225-65-59